O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA LINGVOKULTUROLOGIYA VA QIYOSIY-CHOG‘ISHTIRMA LINGVOKULTUROLOGIYA HAQIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Haydarova Kamola Davranovna

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada linvokulturologiya fani va uning kelib chiqish tarixi, shakillanish va rivojlanishlanish bosqichlari haqida ilmiy nazariy qarashlar berilgan. Ma’lumki, til va madaniyat turli hil semiotik sistema bo‘lsada, ko‘p jihatdan bir-biriga yaqindir. Til murakkab hodisa bo‘lib, madaniyat bilan chambarchas bog‘likligi haqida fikr yuritib, uning o‘ziga xos xususiyatlari borligi va ular tilshunoslikning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, til, madaniyat, makon, zamon.

Abstract: This article presents scientific and theoretical perspectives on the discipline of linguoculturology, covering its origins and the stages of its formation and development. Although language and culture are distinct semiotic systems, they are closely interrelated in many respects. Language is a complex phenomenon inextricably linked to culture; its distinctive characteristics serve as a foundation for the emergence of this field of linguistics.

Keywords: linguoculturology, language, culture, space, time.

Hozirgi zamonda lingvistikaning rivojlanishi tilni nafaqat ichki, balki tashqi aloqalarini ham izil o‘rganishga da’vat etmoqda. Bunday holat tillarning o‘zaro aloqalarini hamda bir-biriga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borish tilshunoslik fanining oldidi turgan muhim vazifalardan ekanliginidan darak beradi. Ma’lumki, til va madaniyat turli hil semiotik sistema bo‘lsada, ko‘p jihatdan bir-biriga yaqindir. V. N. Teliya ta’kidlaganidek, “1) madaniyat til kabi – bu insoniyat tafakkurining mahsulidir; 2) til va madaniyat o‘zaro muloqatda

mavjuddir; 3) madaniyat va til sub'ekti bu doimiy ravishda shaxs va jamiyatda yoki jamiyat va shaxsda namoyon bo‘ladi; 4) me'yor – madaniyat va til uchun umumiy xususiyatdir; 5) tarixiylik madaniyat va tilning muhim xususiyatlaridan biridir; 6) dinamika-statiskaning qarama-qarshiligi madaniyat va tilga xosdir"[1]. .Ushbu fiklar bejizga aytilmagan, albatta. Olimaning bunday xulosaga kelishiga o‘tmishda til va madaniyat aloqarini o‘rgangan olimlar fikrlari turtki bo‘lgan. Ulardan ba'zi birlari haqida to‘xtalish joyizdir.

Mashhur tilshunos E. Benvenist til murakkab hodisa bo‘lib, madaniyat bilan chambarchas bog‘likligi haqida fikr yuritib, uning o‘ziga xos xususiyatlari borligi va ular tilshunoslikning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini qayd etgan.

XVIII–XIX asrlarda ijod qilgan faylasuf va tilshunoslardan biri V.Fon Gumboldt tilning ko‘plab aspektlarini tushunish uning ijtimoiy-antropologik tabiatini o‘rganish bilan bog‘liqligi haqida o‘zining qator ishlarida to‘xtalib, til-shunday organki, inson u yordamida o‘z fikrini ifodalaydi (Die Sprache ist das bildene Organ des Gedanken) deb ta'kidlagan. Olim, shuning bilan birga, til millat ruhini ifodalashda va shakllantirishda, olam haqidagi milliy tasavvurni paydo qilish va ko‘rsatishda xizmat qilishini aytib o‘tgan. U tillarni qiyoslashga va chog‘ishtirishga alohida e'tibor qaratagan, chunki, uning fikricha, tillar faqatgina tovush va belgilardan farqlanmaydi, balki dunyoqarashda farqlanadi. V.Fon Gumboldtning ushbu ta'limoti hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda til va madaniyatni bir biriga uzviy bog‘liqligini o‘rganishda u tomonidan yaratilgan nazariy ta'limot lingvokulturologiya fani haqida olib borilayotgan tadqiqotlarni olib borishda qo‘l kelmoqda.

Bu o‘rinda V. Gumboldtning har bir til borliqni o‘ziga xos ifodalab, til sohibi u orqali olamni ko‘rish va mazmunlashtirishga majbur, degan fikrlarini davom ettirgan B.L.Uorf nomini tiliga olish maqsadga muvofiqdir. Uning fikricha, tilning kelib chiqish madaniyaga bevosita bog‘liqdir.

E.Sepirning yozishicha, “til madaniyatdan tashqarida, ya’ni bizning turmush tarzimizga xos bo‘lgan ijtimoiy meros bo‘lib qolgan amaliy ko‘nikma va g‘oyalar majmuasidan tashqarida mavjud emas”. U bir necha bor, madaniyatning tilga va tilning madaniyatga ta’siri bir xil emasligi haqidagi fikrlarini bayon qilgan. Shunga qaramay, Sepir ham Gumboldt va Uorf fikrlariga yaqin mulohaza yuritgan. Darhaqiqat, Sepir va Uorfning ta’limotlari Amerika tilshunosligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

E.Sepir va B.L.Uorflarning ta’kidlashicha, har bir til tashuvchisi o‘z ona tilini o‘rganib borar ekan tafakkurning ma’lum bir ko‘rinishini o‘zlashtiradi, dunyoni faqatgina ona tili tuzilishi bilan bog‘langan nuqtai nazardan ko‘radi va shu tilda o‘z aksini topgan olam manzarasini qabul qiladi. Bundan ko‘rinadiki, u o‘z tushunchasini, milliy madaniyatini saqlagan holda, ona tilida bayon qiladi.

Til va madaniyat aloqalarini tadqiq etgan rossiyalik tilshunoslar Yu. D. Apresyan va V. V. Kolesov ham turli til sohiblari dunyoni turlicha ko‘rganliklari uchun, ularning o‘ziga xos dunyoqarashlari yoki borliqni kontseptuallashtirish usullari universal va ma’lum darajada milliy o‘ziga xos xususiyatlarga ega degan xulosaga kelishgan [4].

Yuqorida nomlari zikr etilgan tilshunoslarning fikri shundan darak beradiki, madaniyat ham til kabi ma’lumotni uzatishga qodir bo‘lgan belgilar tizimi bo‘lsa-da, u mustaqil ravishda vujudga kela olmaydi. Madaniyatning vazifasi eng avvalo xotira, so‘ngra esa jamg‘arish va absolyut ommaviylikka intilishdan iboratdir.

Dunyoda globallashuv jarayonida xalqlarning milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim o‘rin tutadigan til birliklarini tadqiq qilish kuchayib bormoqda. Universallashuv jarayoni bilan bir vaqtda madaniyatlar tabaqalashuvi tendentsiyasi ham rivojlanmoqda. Bu vaziyat turli tizimga oid bo‘lgan etnomadaniy qadriyatlarni anlatuvchi terminlarni o‘rganishni taqozo etmoqda. Ular qatoriga “lingvokulturologiyani” kiritish mumkin.

Rus tilshunoslarining fikriga muvofiq, yangi ilmiy kurs – lingvokulturologiya fani XX asrning 90-yillarida paydo bo‘lgan. Ular ushbu fan rivojlanishini uch bosqichga bo‘lishadi:

- birinchi – bu muammoning dastlabki rivojlanishi: til – madaniyat – inson;
- ikkinchi – lingvokulturologiyani mustaqil soha sifatida rasmiylashtirish;
- uchinchi – lingvokulturologiyaning fundamental fanlararo fan sifatida shakllanishi. Uchunchi bosqich shakllanish davrida turibdi.

Birinchi bosqich linvokulturologiyaning boshlang‘ich davri – XIX asr, so‘ngra XX asr olimlarining til va madaniyatning o‘zaro munosabatlariga murojaati sababli yuzaga kelgan. Amerikalik olimlar Edvard Sepir va uning o‘quvchisi Bendjamin Li Uorf fikricha, nisbiylik lingvistik nazariyasi bo‘yicha inson dunyo manzarasi, tili uning gapirishida aniqlanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida yangi fanlar: “Kulturologiya” – “Madaniyatshunoslik”, “Etnolingvistika”, «Lingvostranovedenie» – “Mamlakatshunoslik” paydo bo‘lgan.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan yo‘nalishlar yangi lingvistik fan – lingvokulturologiyaning muhim muboshirlari (bobolari) bo‘lib hisoblanadi.

Lingvokulturologiyaning shakllanishini 2-bosqichi – bu XX asrning 90 yillari. Ushbu davrda til va madaniyat munosabati muammolari ilmiy tadqiqot markaziga o‘tdi va til haqidagi ilmning rivojlanishini eng muhim yo‘nalishi shakllandi.

Birinchilardan bo‘lib “lingvokulturologiya” terminiga rossiyalik lingvist V. V. Vorobyov murojaat qilgan va 1996 yilda «Теоретические и прикладные аспекты лингвокультурологии» (“Lingvokulturologiyaning nazariy va amaliy aspektlari”) mavzuyida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U “lingvokulturologiya” terminiga quyidagi ta’rifni berishni taklif qilgan: “lingvokulturologiya – madaniyat va til munosabatining o‘zaro aloqasi hamda

umumiy tuzilish birliklarining tillardagi o‘xshashligi va madaniy mazmuni sifatida o‘rganadigan kompleks ilmiy fandir”.

Lingvokulturologiyaning mustaqil ilmiy fan sifatida tamal toshini XX asr oxirlarida qo‘yilgan deb, uni Moskva frazeologiya maktabining asoschisi V. N. Teliya nomi bilan bog‘lashadi. Uning fikricha, “lingvokulturologiya – bu etnolingvistikaning bir qismi bo‘lib, til va madaniyatning aloqalarini sinxron tarzda o‘zaro ta’sirini o‘rganishga va tavsiflashga bag‘ishlanadi”.

Lingvokulturologiya rivojining uchinchi bosqichi XXI asrning o‘ninchi yilni boshlariga borib taqaladi. Ushbu davrda bu yo‘nalish fundamental fanlararo fan sifatida yuqori cho‘qqiga chiqqan. Uning shakllanishida, jumladan, ingliz (Eduard Sapir, Benjamin Lee Whorf, Paul Friedrich, Michael Agar, George Lakoff, Mark Johnson, Hans Lauge Hansen, Karen Risager, Heidi Byrnes), rus (N.D.Arutyunova, N.F.Alefirenko, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.G.Kostomarov, V.V.Krasnix, V.A.Maslova, V.N.Teliya, A.T.Xrolenko, A.D.Shmelev) va o‘zbek (A.Abduazizov, Sh.Safarov, O‘.Q.Yusupov, D.U.Ashurova, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, A.E.Mamatov, G.Mahkamova, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova) tilshunoslari katta hissa qo‘shdi.

Shunday qilib, lingvokulturologiya hozirgi vaqtda uchinchi bosqichga – zamonaviy lingvistikaning eng ustivor yo‘nalishiga chiqdi.

Lingvokulturologiya nisbatan yangi fan sifatida qator qarama-qarshiliklarga ega. Unga eng maqbul ta’rif V.A.Maslova tomonidan berilganligi sababli, biz u kishining fikriga to‘liq qo‘shilamiz: “Lingvokulturologiya – bu lingvistika va madaniyatning birikishi natijasida paydo bo‘lgan va tilda aks etgan hamda mustahkamlangan xalq madaniyatini namoyon bo‘lishini tadqiq qiladigan tilshunoslik sohasi”.

Lingvokulturalogiyaning tadqiqot ob’ekti – “til va madaniyatning o‘zaro aloqalari hamda madaniyatning til prizmasiga ta’siri”, predmeti – mif, afsona, diniy marosimlar, rasm-rusumlar, folklor va diniy diskurs, poetik va prozaik

matnlar, frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar, maqollar va matallarda qayd etilgan til birliklari bo‘lib hisoblanadi.

Lingvokulturologiyani yangi fan sohasida tan olgan Rossiya olimlaridan biri V.V.Vorobyovning yozishicha, “bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo‘l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o‘rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda aks ettiradigan, ta’limninig bilim olish, tarbiyaviy va intelektual vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini hamda bu jarayonni lisoniy va nolisoniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir”.

N.F.Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha ta’riflaydi:

“– lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

– lingvokulturologiyaning asosiy e’tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

– lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

– lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi”.

Shunday qilib, tilning semantik zamirida qadriyatlar deb ataladigan maxsus kulturologik kategoriyalar mavjud bo‘lib, ulardan quyidagilar lingvokulturologiya nuqtai nazaridan o‘rganiladi:

a) hayotiy (*hayot, sog‘lik, turmush tarzi, tabiiy muhit* va b.)

b) ijtimoiy (*ijtimoiy holat, mavqe, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, boylik, kasbiy faoliyat, oila, gender tengligi* va b.)

v) siyosiy (*so‘z erkinligi, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, tinchlik* va b.)

g) ahloqiy (*yaxshilik, sevgi, odob-ahloq, do‘stlik, or-nomus, burch* va b.)

d) diniy (*Olloh, ilohiyat, iymon, najot* va b.)

e) estetik (*go‘zallik, uslub, ideal, uyg‘unlik* va b.).

Tilda ifodalanish darajasiga ko‘ra ma’naviy qadriyatlar umuminsoniy, milliy, guruhli, oilaviy va individual-shaxsiy qadriyatlar ko‘rinishida aks etadi.

E.I.Zinovyeva fikricha, “lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fan sohalarini o‘z ichiga olar ekan, turli til birliklari yordamida u yoki bu tilda olamning lisoniy tasvirini anglash va ular yordamida nutqiy madaniyatni shakllantirish kabi sohalarni ham qamrab oladi. Bu esa bizga til va madaniyatning o‘zaro ta’siri natijasida til birliklarining assotsiativ aloqalari hamda konnotativ ma’nolarini inson ongida o‘z ona tilida ochib berish imkonini beradi” [5].

Ingliz antropologi P.Fredrix o‘zining ilmiy asarlarida “til va madaniyat” terminini qo‘llagan bo‘lsada, “lingvokulturologiya” terminini ingliz tilshunosligiga amerikalik lingvist, antropolog M.Agar olib kirgan. U bu terminni ilk marotaba o‘zining “*Language Shock: Understanding the culture of conversation”* asarida qo‘llagan. Uning ta’kidlashicha, lingvokulturologiya – til va madaniyat orasidagi zaruriy ko‘prik vositasini bajaradi hamda bu ikki tushunchani bir-biridan ayro holatda tasavvur qilib bo‘lmaydi. U, jumladan, bu haqida shunday deb yozadi: “agar siz tilda ifodalangan madaniyatni bilmasangiz, tilni ham o‘zlashtiraolmaysiz. Til – bu odamlar va tilshunoslar chizgan doira, madaniyat – ushbu doirani o‘chira oladigan o‘chirg‘ichdir” (*You cannot really know a language if you do not know also the culture expressed by that language. Language is a circle drawn by people and linguists, culture is an eraser that can erase this circle.*

Ma’lumki, “madaniyat” atamasi lotincha *cultura* ga borib taqaladi va bu so‘z antropologiyaning texnik lug‘atidan o‘zlashtirilgan. Unga ko‘ra, u “jamiyat talabidan kelib chiqib, jamiyat a’zolarining butun turmush tarzini qamrab oladi. Bu so‘z ikkita asosiy ma’noga ega: 1) odamlarning hayotini barcha sohalarida alohida yemas, balki birgalikda – ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy yutuqlari

yig‘indisi; 2) zamonaviy talablarga javob beradigan ushbu yutuqlarning yuqori darajasi ham madaniyat demakdir. Demak, madaniyat deganda, jamiyat (xalq) moddiy va ma’naviy hayotining tarixan shakllangan xususiyatlari, insonlarda mavjud o‘ziga xoslik, ularning turmush tarzi va tabiati, boshqa odamlar bilan munosabati, allaqachon yaratilgan madaniy ob’ektlar va qadriyat yo‘nalishlari bilan o‘zaro munosabati jarayonida yaratgan va yaratilgan sun’iy muhit tushuniladi”.

Demak, o‘z faoliyatida inson olamni o‘zi bilan emas, balki lisoniy manzarasi, kognitiv tushuncha va modellar bilan ham shug‘ullanadi. Dunyo esa uning madaniyati va tili prizmasida aks etadi. Bu borada Rossiyadagi quyidagi lingvokulturologiya ilmiy maktablari tilshunoslarining fikrlari e’tiborni o‘ziga tortadi. V.A.Maslovaning ta’kidlashicha, Yu.S.Stepanov maktabi madaniyat konstantlarini diaxronik tavsiflashga, N.N.Arutyunova – turli davrdagi xalqlarning universal terminlarini o‘rganishga, Ye.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar – til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini rivojlanish kontseptsiyasini tadqiqi qilishga, V.N.Teliya – tirik tilni tashuvchisining refleksiyasi nuqtai nazaridan tilning mohiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

O‘zbek tilshunoslari ham lingvokulturologiya gumanitar fanlardan biri deb hisoblab, u milliy xalq tilining mujassamlashtirishini va tilda aks etgan moddiy va ma’naviy madaniyat belgisini o‘rganishini ta’kidlaganlar. Ularning fikriga muvofiq, lingvokulturologiya tilning fundamental vazifalari qay tarzda amalga oshayotganini aniqlaydi va tushuntiradi. N.Mahmudov ta’biri bilan aytganda: “Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir”.

Shunday qilib, hozirgi kunda lingvokulturologiya bir necha yo‘nalishlarda shakllanmoqda. Ularning vazifalar turli xildir:

1) qiyosiy lingvokulturologiya turli, lekin o‘zaro bog‘liq etnik guruhlarning lingvomadaniy ko‘rinishlarini qiyoslab o‘rganadi;

2) diaxron lingvokulturologiya bir etnik guruhning lingvomadaniy holatini ma’lum vaqt oralig‘idagi o‘zgarishlarini tahlil qiladi;

3) etnos lingvokulturologiya ma’lum bir ijtimoiy guruhning til va madaniyat hodisalarining o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi;

4) leksikografik lingvokulturologiya til va madaniyatga dahldor lug‘atshunoslik sohalarni o‘rganadi;

5) chog‘ishtirma lingvokulturologiya turli tizimli tillarning madaniyatga xos o‘zaro aloqalarini o‘rganadi.

Shuni e’tirof etishimiz kerakki, bugungi kunga kelib chog‘ishtirma lingvokulturologiya endigina rivojlanmoqda va bu xususida bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bulardan eng qiziqarlisi M.K.Golivanovskayaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazaridan frantsuz mentaliteti” nomli tadqiqotidir. Bunda frantsuz mentalitetining muhim jihatlari rus tili va madaniyati sohiblari nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Til va madaniyat aloqalarini o‘rganishning asoschisi XI asrda yashab ijod qilgan bobokalonimiz faylasuf, adabiyotshunos va tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lib hisoblanadi. U ilk bor turkiy o‘lkalardagi sheva va lahja xususiyatlarini o‘rganib, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirib, ushbu ma’lumotlarni o‘zining “Devoni-lug‘atit turk” asarida bayon etgan. Shu sababli M. Qashg‘ariyni qiyosiy-tarixiy tilshunoslik faning otasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. A.Nurmonov fikricha, “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”iga na materialning hajmi jihatdan, na muallifning filologik bilimi jihatidan bas keladigan biror asar yo‘q. “Devon” ning lug‘at deb atalishi uning asl mazmuniga uncha mos kelmaydi. Bunda turkiy tillar grammatikasidan juda keng ma’lumotlar bor. Yana unda turkiy tillar leksikasi, fonetikasiga oid keng ma’lumotlar, qabilalarning joylashish xususiyatlari,

geografik va boshqa xil ma’lumotlar mavjud”. Demak, lingvomadaniyat tushunchasi haqidagi fikr M.Qoshg‘ariy tomonidan ilgari surilgan. Shu bilan birgalikda lingvomadaniyat tushunchasini bilan bog‘liq fikrlar keyinchalik Yevropa ma’rifatchilik ijtimoiy siyosiy oqimi arboblari V. fon Gumboldt, F. de Sossyur, I.G. Gerder, J.Grimm, R.Ruska, R.Lado, E.Sepir, A.A.Potebni, S.Balli, J.Vandries, I.A.Boduen de Kurtene, R.O.Yakobson, J.J.Russo, D.Didro, A.D.Golbax, I.G.Gerder, B.L.Uorflarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Ingliz tilshunosligida chog‘ishtirma lingvokul’turologiya sohasiga e’tibor qaratilmay kelinmoqda. Ammo rus tilshunoslari tomonidan bu borada sezilarli darajada ilmiy ishlar olib borilmoqda. Chog‘ishtirma lingvokulturologiyaning asosiy muammolarini Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, A.Vejbitskaya, V.V.Vorobyeva, V.V.Krasnix, S.G.Ter-Minasova, Ye.V.Urison, L.K.Bayramova, Z.K.Derbishevalarning ilmiy izlanishlarida kuzatishimiz mumkin. V.V.Mokienko, V.N.Teliya, E.M.Soloduxo, Yu.P.Solodub o‘z asarlarida olamning frazeologik manzarasini rus tili misolida boshqa tillar bilan chog‘ishtirishgan.

M.V.Moiseyev va N.G.Gichevaning “Сопоставительная лингвокультурология английского и русского языков” nomli asarida ingliz va rus tillari materiallaridan foydalanib, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullari o‘rnatilgan hamda ular madaniyat bilan belgilanadigan eng muhim til hodisalari sifatida tushunchalarning og‘zaki amalga oshirilishi, stereotiplar, belgilar va mifologemalar misolida tavsiflangan. Tilda madaniyatni qanday tarjima qilish va saqlab qolish haqida tushunchalar berilgan. Ikki xil tilni qiyoslab chog‘ishtirishda tilda xalq madaniyatining namoyon bo‘lishini aks yettirish va mustahkamlashda umumiy qonuniyatlarni aniqlashtirish va milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash imkonini berishi haqida fikr yuritilgan.

V.V.Vorobyov, G.M.Polyakovaning “Сопоставительная лингвокультурология как новое научное направление” maqolasi ham yangi ilmiy yo‘nalish – chog‘ishtirma lingvokulturologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqotchilar shu soha predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalarini muhokama

qilishgan. Ushbu yo‘nalish lingvokulturologiya va chog‘ishtirma tilshunoslik chorrahasida paydo bo‘lgan bo‘lib, tillar va madaniyatlarni ona tili prizmasi orqali taqqoslaydi. Materiallar tadqiqotning asosiy tamoyillari: taqqoslash va qiyosiy-chog‘ishtirma yondashuvlar asosida tahlilga tortilgan. Bu esa o‘z navbatida chog‘ishtirma lingvokulturologiyani rivojlanish istiqboliga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu sohaga yana bir misol tariqasida R.X.Xayrulinaning “Сопоставительная лингвокультурология” asarini keltirishimiz mumkin. Muallif o‘z tadqiqotida slavyan, roman-german va turk tillarini qiyoslab hamda chog‘ishtirib, bu sohada qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

90- yillardan boshlab, o‘zbek tilshunoslari keng ko‘lamda qiyosiy va chog‘ishtirma lingvokulturologiya muammolari bilan bog‘liq qator tadqiqotlarni amalga oshirib, ularning natijalarini o‘quvchilar e’tiboriga havola qilib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки и культура», 1996. – С. 225.
2. Апресян Ю.Д. Интегральное описание языка и системная лексикография. Языки русской культуры. Избранные труды. – М.: Школа, 1995. – Т.2. – С. 479. / 766 с.; Колесов В.В. Русская ментальность в языке и тексте // СПб.: Петербургское востоковедение, 2006. – С. 264.
3. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – Вып.1. – С. 285.
4. Зиновьева Е. И. Лингвокультурология: от теории к практике. Учебник. – Нестор История, 2016. – 182 с.
5. Friedrich Paul. Language, Ideology and Political Economy in American Anthropologist // https://www.jstor.org/stable/681076